

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

ILM VA OLIMLIK MATLABI (XX ASR YOSH NAVOIYSHUNOSLARI FAOLIYATIGA BIR NAZAR)

Nusratullo Jumaxo‘ja
Prof. (DSc) (O‘zbekistan)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida yosh olim qismati muammosi tadqiq etilgan. Maqolaga “Hayrat ul-abror” dostonidagi ilm to‘g‘risida yozilgan 11-maqolat obyekt qilib olingan. Navoiy tasviridagi yosh olim qismati XX asr O‘zR FA Til va adabiyot instituti yosh olimlari taqdiri bilan qiyosiy tahlil etilgan. Olimning shakllanishi jarayonidagi murakkab tarixiy-ijtimoiy muhit yoritilgan. Olim qadriyatining shakllanishiga XV asr muhiti hamda XX asr mustamlaka tuzumidagi ijtimoiy munosabatdagi o‘xshash hayotiy qonuniyatlar kashf etilgan.

Kalit so‘zlar: yosh olim, qismat, mustabid tuzum, olim qadriyati, yosh olimning ahvoli, ilmga jamiyat e‘tibori, ilmiy salohiyat qadrsizligi oqibatlari, turli jamiyat ijtimoiy munosabatlaridagi qonuniyat.

Аннотация: В этой статье исследуется проблема роли молодого ученого в творчестве Алишера Навои. В качестве объекта статьи была взята 11-я статья эпоса “Хайрат уль-Абдор” о науке. Вклад молодого ученого в образ Навои был сравнительно проанализирован судьбами молодых ученых Института языка и литературы им.Р. А. Навои. Освещается сложная историко-социальная среда в процессе становления ученого. На формирование ценности ученого повлияло открытие сходных жизненных закономерностей в общественном отношении в среде XV века, а также в колониальном режиме XX века.

Ключевые слова: молодой ученый, судьба, деспотический режим, ценность ученого, состояние молодого ученого, внимание общества к науке, последствия недооценки научного потенциала, закономерности в различных общественных отношениях общества.

Annotation: This article examines the problem of the fate of a young scientist in Alisher Navoi's work. The subject is the 11th article written about science in the epic "Hayrat ul-Abror". The fate of the young scientist in the image of Navoi is compared with the fate of the young scientists of the Institute of Language and Literature of the Uz R FA in the 20th century. The complex historical and social environment in the process of formation of a scientist is highlighted. The scientist's value was formed in the social relations of the 15th-century environment and the 20th-century colonial system.

Key words: young scientist, fate, authoritarian system, scientist's value, young scientist's situation, society's attention to science, consequences of undervaluation of scientific potential, legality in social relations of various societies.

Alisher Navoiy “Xamsa”si birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”ning 11-maqolati ilm va olim tasviriga bag‘ishlangan. Mazkur maqolatning muayyan tarkibiy qismida yosh olimning taqdiri tasviri aks ettirilgan. Shu maqolatni yillar davomida qayta-qayta o‘qir ekanman, beixtiyor o‘z avlodimning yosh olimlik davri ko‘z oldimga kelaveradi. Maqolatda yosh olimning taqdiri qanday tasvirlangan bo‘lsa, biz yosh olimlarning qismati ham, taxminan, shunday kechgan edi. Maqolat mavjud jamiyat va dunyo ilm hamda olim uchun nosoz yaratilganligi haqidagi mazmunni ifodalaydi. Ushbu mazmun maqolatning birinchi baytidayoq o‘zining juda muvofiq ifodasini topgan:

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Dahr ishi to xalq ila bo‘lmish sitez,

Xordurur olimu johil aziz [Alisher Navoiy, 1991,212].

Mana shu ilk baytdanoq hayrat va otashinlik balqib turibdi. Bu hayratomuz adolatsizlik va ziddiyatni qarangi, dunyoning ishlari azal-azaldan xalq manfaatlariga ziddir. Dunyo va jamiyat fitratida ana shunday nomuvofiqlik bor ekan, hamisha olim xor, nodon esa azizdir. Maqolatning bu ochqich baytida ifodalangan mazmun va g‘oya oxirigacha badiiy sharhlab boriladi.

Maqolatning 24-baytidan 53-baytigacha bo‘lgan qismi, ya’ni 29 bayti faqat yosh olimning sarguzashtlari bayonidan iborat. Ushbu musibatli sarguzasht quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Zulmdurur ushbuki, bir notavon

Ilm tilab shahridin o‘lg‘ay ravon [Alisher Navoiy, 1991,212].

Hali bu baytda jamiyatning olimga munosabati haqida gap ketgani yo‘q. Shoir bir zaif, ya’ni iqtisodiy jihatdan ta’minlanmagan yosh yigitning ilm talabgori bo‘lib o‘z shahridan chiqib ketishining o‘ziyoq zulm deb aytyapti. Chunki ilm yo‘li juda olis va mashaqqatli. Yo‘lga tushgan tolibi ilm oldinda uni nimalar kutayotganini hali bilmaydi. Holbuki, kutilmagan azob-uqubatlarga boy ilm safariga otlangan tolibi ilm moddiy tomondan to‘la ta’minlangan bo‘lishi kerak. U esa nochor ahvolda. Ammo afsuslanarli hayot ziddiyatini qarangi, har tomonlama ta’minlangan odamlardan esa chinakam ilm talabgorlari kamdan-kam chiqadi.

1970-yillar. Mustabid sho‘ro davlati tuzumi hukmronligi avj pallasida. Biz, quyidagi tarkibdagi yosh tadqiqotchilar O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot ilmiy tadqiqot institutida o‘z mehnat faoliyatimizni boshlaganmiz: Abdulla Matyoqubov, Menglivoy Xoliyorov, To‘laboy Ro‘ziboyev, Ra’no Ibrohimova, Robiyajon Abdullayeva, Abiyr Musaqulov, Alimulla Habibullayev, Baxtiyor Qurbonboyev, Bekpo‘lat Umrqulov, Suvon Meliyev, Berdak Yusuf, Isoqjon Nosirov, Ibrohim Haqqulov, Mahmud Nazarov, Tohir Mullayev, Hakim Shamsiddinov, Masharif Safarov, Ne‘mat Mahkamov, Abduvahob Madvaliyev, Hasan Qayumov, Eldor Boboyev, Ziyodulla Hamidov, Hamidulla Dadaboyev, Hojimurod Rasulov, Zuhridin Isomiddinov, Sultonmurod Olimov, Nusratullo Jumaxo‘ja, Nishonboy Husanov, Rahmatulla Barakayev, Qurdosh Qahramonov, Mamatqul Jo‘rayev, Marhabo Madrahimova, Sayyora Jumaboeva, Gulchehra Parpieva, Umrzoq Jumanazarov, Akif Bagirov, Inoyat Rahmonov, Sobit Madaliyev, Anvar Jabborov, Ravshan Jomonov, Rahimboy Jumaniyozov, G‘ofir Tojiboyev, Sayfiddin Rafiddinov, Anvar qori Tursunov, Gulsara Ismoilova, Jo‘ra Mamatov, Zamira Ibrohimova, Zuhra Mirahmedova, Vyacheslav Kim, Ibidar Panasenko, Ruslan Qilichev, Shahobiddin

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Odilov, Shomirza Turdimov, Jabbor Eshonqulov, Bahrom Jo‘rayev, G‘anijon Mahmudov, Halima Yo‘ldosheva, Oftobxon Umarxo‘jayeva, Hamdam Ismoilov, Mirzaahmad Olimov, Habibulla O‘zganboyev, Rustam Sharipov, Sayyora Xolmirzayeva, Ilhom Samandarov, Oydin Nazirova. Ayrim yosh olimlar yodimizga kelmay ushbu ro‘yxatga kirmay qolgan bo‘lishi mumkin. Ushbu ro‘yxatdan ilmda o‘z yo‘llarini topolmay, yillar davomida biror natijaga erisholmay ilmiy dargohni tark etgan yoshlikdagi ba‘zi do‘stlarimiz ham o‘rin olgan. Chunki ular ham bir necha yil ilm yo‘lida izlanib, riyozat tortganlar. Qolgan yosh tadqiqotchilarning hammasi potensial aqliy salohiyat egalari edilar. Ularning ko‘pchiligi, shubhasiz, ilm izlab o‘z yurtini tark etib, poytaxtga kelgan musofir yoshlardan tarkib topgandi.

Keyingi baytdan ilm tolibining ahvoli hayotiy tasvirlanadi:

Ayni falokatdin ayog‘i yalang,

To‘ni yo‘qidin tani dog‘i yalang [Alisher Navoiy, 1991,212].

Ilm talabgori bo‘lib yo‘lga chiqqan yigitning ahvolini ko‘ringki, qashshoqlikdan oyog‘ida oyoq kiyimi yo‘q. To‘ni yo‘qligidan badani ham yalang‘och.

Tevrab ayog‘ini aning har tikan,

Har tikan ustida mukarrar tikan [Alisher Navoiy, 1991,212].

Yigitning yalang oyoqlarini, tikan ustiga tikan sanchilib, ilma-teshik qilib tashlagan.

Bu navqiron yigitning ustki kiyimi ham ayanchli ahvolda:

Eski sepechi boshida kulguluk,

Dom kibi boshdin ayog‘i tiluk [Alisher Navoiy, 1991,212].

Ushbu baytdagi “sepech” so‘zi uch o‘ramli sallani, “dom” to‘rdan yasalgan ov qurolini, “tiluk” tilingan, yirtiq-yamoq ma‘nosini anglatadi. Musofir ilm tolibining boshidagi sallasi ham salobatli emas, balki uch o‘ramli, ko‘rksizgina, kiyimlari boshdan-oyoq to‘r singari ilma-teshik, yirtiq-yamoq holatda. Biz – yosh tadqiqotchilarning ahvolimiz ham, Navoiy mubolag‘ali tasvirlaganidek bo‘lmasa-da, shunga yaqin edi. Yosh tadqiqotchilar ishlaydigan dargohning nomi Akademiya, ya‘ni eng ulug‘vor ilm-fan maskani bo‘lishiga qaramay, oliy ma‘lumotli yoshlarni darhol ilmiy xodim lavozimiga qabul qilishmas, laborant yoki katta laborant shtatiga qabul qilishar, uning maoshi esa eng kam miqdorda bo‘lardi. Yosh tadqiqotchi oyiga 75 yoki 90 so‘m oylik olar va bu xalqaro miqyosdagi 100 dollar qiymatiga ham yetmasdi. Shu oylikdan yosh olim, boshpanasi yo‘qligidan, ijara haqi to‘lar, kiyim-bosh olar, kitob sotib olar va yana yeb-ichishga sarf-xarajat qilardi. Shuning uchun uning ahvoli Navoiy tasvirlagan yosh tolibi ilmnikidan qolishmasdi.

Bu yosh tolibi ilmning iqtisodiy ahvoli juda nochor:

Och etibon qornini muhtojliq,

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

To ‘mag‘a muhtoj etibon ochliq.

Jismini chun za‘f etib andoqki nol,

Xoma kibi til chekib, aylab savol [Alisher Navoiy, 1991,212].

Tolibi ilm safarda nechuk riyozatlarga duchor kelishini tasavvur etmagan, albatta. Moddiy muhtojlik uni ochlikka giriftor etadi. Ochlik va muhtojlik uning vujudini nol darajasida ingichka torttirib, qomatini so‘roq alomati shakliga soladi.

Ayrim yosh tadqiqotchilar Institutga yaqin Amir Temur maydonidagi Gorkiy bog‘ida joylashgan Buratino nomli parhez taomlar oshxonasiga qatnab, oylab tushlikka shirguruch yo mannaya kasha, bir bo‘lak non va bir stakan kampo iste‘moli bilan qanoatlanishardi. Kattalar, ularning hollaridan bexabar, tanbeh berishardi: “Nega plash yo kurtkada yuribsiz, hozir qish, palto kiyish kerak”. Yoshlarning bunga aqli etar, lekin paltolari yo‘q edi. “Nega tuflida yuribsiz, hozir botinka yo etik kiyadigan mavsum”. Yosh tadqiqotchining botinka yo etik sotib olishga maoshi etmas edi. Aksariyat yoshlar qishning sovug‘i va qor-yomg‘irini bosh kiyimsiz o‘tkazardi. Iqtisodiy nochorlikdan yengil-yupun kiyinib, sog‘liqdan kechib, bir amallab, bahor-u yozga yetib olinardi. Shunda ham: “Biz o‘z ilmiy ishimizni qilyapmiz, davlatga rahmat, oylik beryapti”, deya shukronalar qilinardi. Bu yosh tadqiqotchilar ilmiy hayot juda kambag‘alchiligidan juda kech oila qurishardi, ba‘zilari umrbod oila qurishmadi ham.

Keyingi baytlar turkumini yosh ilm tolibi va jamiyat manzaralari tashkil etadi:

Harne etib, qone o‘lub yo‘l yurub,

To o‘zin o‘z maqsadig‘a yetkurub.

Maqsadi bir xittaki, ko‘rmay o‘zi,

Tushta dog‘i ko‘rmayin oni ko‘zi.

Xalq ko‘pu yo‘q biri yori aning,

Ko‘zdin uchub shahru diyori aning.

Ko‘cha ko‘pu ev ko‘pu bozor ham,

Bilmayin ulkim, qayon urg‘ay qadam.

G‘urbat o‘ti ko‘ngliga kor aylabon,

Jonini yolg‘uzlig‘i zor aylabon.

Sayr etib aqshomg‘acha beto‘shae,

Chun bo‘lub aqshom tutubon go‘shae.

Za‘f ila hushi o‘zig‘a kelmayin,

Tongg‘acha uyqu ko‘zig‘a kelmayin [Alisher Navoiy, 1991,212].

Yosh ilm tolibi har nima nasib etsa, unga qanoat qilib, o‘z maqsadi sari intiladi. Uning birinchi maqsadi biror boshpana, yashash uchun manzil-makon topish. Biroq

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

unday boshpana aslo ko‘ziga chalinmaydi. Nainki boshpana qidirib topa olmaydi, balki yetti uxlab tushiga ham kirmaydi. U sarson-sargardon yurgan shaharda xalq ko‘p, lekin birontasi unga qayishmaydi. G‘urbatda biror shafiq-u mehribon ko‘rmagach, o‘zining ona shahri ko‘zidan o‘taveradi. Bu ulkan shaharda ko‘cha ko‘p, uylar ham ko‘p, ammo u qaysi tomonga yurishni bilmaydi. Vatandan ayriliq o‘ti ko‘nglini kuydiradi, yolg‘izlik jonidan to‘ydiradi. Sahardan shomgacha tinim bilmay najot axtaradi, oqshomga borib noiloj bir burchakka cho‘kadi. Darmonsizlikdan es-hushi o‘ziga kelmay, uyqusizlikdan karaxt bo‘lib tong ottiradi.

Boshpanasizlik – yosh tadqiqotchi uchun eng katta musibat. Boshpana bo‘lmas ekan, oila qurib, saranjom-sarishta ro‘zg‘or tutib bo‘lmaydi, kitoblar, yozuv qurollari, stol-stullarni joylashtirish imkonsiz, muqim hayot, ilmiy mikromuhit yaratish dushvor. Mudom xavf-u xavotir tinchlik bermaydi: ertaga boshpana egasi ko‘chib chiqasan desa, nima bo‘ladi? Hech mubolag‘asiz kunlardan bir kuni shunday bo‘ldi ham. Bir yosh tadqiqotchi yashayotgan uy egasi o‘z oilasi bilan kelisha olmay, unga 48 soat ichida ko‘chib chiqish haqida muhlat qo‘ydi. U bechora ko‘ch-ko‘ronini yelkada ko‘tarib, ko‘chama-ko‘cha izg‘ib, ijara uy izlashga majbur bo‘ldi. Xullas, boshpana yo‘q ekan, xotirjamlik yo‘q. Xotirjamlik esa ilmiy tafakkur uchun eng birlamchi muhim ruhiy holat. Alisher Navoiyning o‘zi ta’kidlaganidek:

Xotirni jam aylay desang, avval xavotir daf’in et,

Kimda xavotir bo‘lmasa, osuda xotir bo‘lg‘usi [Alisher Navoiy, 1991,212].

“Osuda xotir” – xotirjamlik esa ilhom va ijod sharoiti, imkoniyatidir.

Ilmday ulug‘vor va sermashaqqat soha qayoqda-yu, Navoiy tasvirlayotgan yosh olim ahvoli qayoqda? Lekin bu tushkun holat yosh ilm tolibining irodasini bukmaydi. U maqsad sari intilishda davom etadi. U tong-saharlab ilm maskanlari sari yo‘l oladi. U yerlardagi ilmiy suhbatlarda ishtirok etadi:

Tongla qilib sayr madoris aro,

Madrasalar ichra majolis aro [Alisher Navoiy, 1991,212].

U qayerdagi o‘z hol-ahvolini bayon etsa, eshitganlar hazil-huzul bilan uning ushbu sarguzashtlarini nodonlikka yo‘yadilar:

Qaydaki o‘z holini ta’vil etib,

Kim eshitib hazl ila tajhil etib [Alisher Navoiy, 1991,212].

Chunki madrasalardagi mullalar bu musofirning ahvolini tushunmaydilar. Ular o‘zlariga to‘q, manzil-maskanlari tayin. Vatansiz va ta’minotsiz bu musofir yigitni ilm dargohlarida adashib yuribdi, deb o‘ylaydilar. Chunki:

Ne topilib kunduz aning maskani,

Ne bilinib kecha aning ma’mani [Alisher Navoiy, 1991,212].

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

Ya’ni, uning na kunduzi maskani, na kechasi bexavotir, omonlikda tong ottiruvchi makoni bor. Boshpanasizlik, ta’minotsizlik, ochlik, muhtojlik, butun va issiq kiyim-kechakka ega bo‘lmaslik, ayniqsa, yosh olim uchun g‘urbatdir. Aksariyat yosh tadqiqotchilarning ahvoli shunday kechadi.

G‘urbat aro holi yomondin yomon,

Har ne yo‘q andin yomon, andin yomon [Alisher Navoiy, 1991,212].

G‘urbat ichra yosh ilm tolibining ahvoli yomondan yomon, Navoyining ruju san’ati bilan tasvirlashicha, hatto, shunday yomon hol bo‘lsaki, undan yomon holat bo‘lmasa, yosh tadqiqotchining ahvoli o‘shandan ham yomon.

Xo‘sh, bunday muhitdagi yosh tadqiqotchining toleyi qanday bo‘ladi? Uning umri qanday kechadi, ilmga fido etilgan hayotning samarasi, mahsuli nimalardan iborat bo‘ladi? Navoiy yosh tolibi ilm taqdirining mana shu tomoniga jiddiy e’tibor beradi va qismatning achchiq haqiqatlarini haqqoniy bayon etadi:

Bo‘yla g‘amu mehnati davron chekib,

O‘nu o‘n besh yil yugurub, jon chekib,

Madrasa kunjini g‘amobod etib,

Tongdin oqshomg‘acha faryod etib,

Bo‘yla ming emgaktagi bechoradin,

O‘z vatani mulkidin ovoradin

Ba‘zi o‘lub, ba‘zi itib har taraf,

Ba‘zi etib doiyasin bartaraf,

Oz ish ila ba‘zi etib iktifo,

Ba‘zi o‘ziga etibon ko‘p jafo,

Evrulubon doirayi mohu sol,

Zohir o‘lub bir-iki sohib kamol [Alisher Navoiy, 1991,212].

Ushbu she’riy parchadan birgina yosh tolibi ilm haqida gap ketmayotganini, umuman yosh ilm talabgorlari nazarda tutilganligini fahmlash mumkin. Ya’ni, yosh ilm tolibi ushbu maqolotda – umumlashma obraz. Aksariyat yosh tadqiqotchilarning umr yo‘li, hasbi holi, hol-ahvoli, sarguzashtlari taxminan shunday – bir xil kechadi. Navoiy ularning hammasini bir tolibi ilm obrazida umumlashtirgan.

Darhaqiqat, yosh olimlar ana shunday qiyinchiliklar ichida yetishib chiqadi. Ular o‘zlarining g‘am-qayg‘ulari bilan, zamonning azob-uqubatlari bilan o‘n-o‘n besh yil jon fido qilib yelib-yuguradilar. Navoiy davrida madrasa, bizning davrimizda ilmiy tadqiqot institutlari va kutubxonalarda go‘shanishin bo‘lib, “nina bilan quduq qaziydilar”. Navoiy yosh tolibi ilm o‘n-o‘n besh yil madrasaning bir burchagini “g‘amobod etdi” deya tasvirlaydi, ya’ni g‘amga botib o‘tirib mutolaa etdi, ilmiy ish

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

yo‘zdi, demoqchi shoir. Madrasalarda, ayniqsa, Navoiy davrida, mullalar “tongdin oqshomg‘acha faryod etib” Qur‘oni karimni, hadisi shariflarni yod olganlar, qiroat bilan shug‘ullanganlar. Hozir ham madrasalarda va islom institutlarida talabalar darslarda shunday mashg‘ulot bilan band bo‘ladilar. Bundayin o‘z yor-u diyorida, mulk-u mamlakatidan yiroqda ming mashaqqat-u riyozat tortib ilm quduqlarini qazish bilan umrining eng gullagan davrini o‘tkazgan yosh tolibi ilmlarning ba‘zilari maqsad yo‘lida shahid bo‘lib, ba‘zilari adashib-uloqib har tarafga tirqirab ketadilar. Ba‘zilari olim bo‘lishdek ulug‘vor orzularidan voz kechadilar. Ba‘zilari sarflagan umrlari, huzur-halovatlari, mehnat-mashaqqatlariga badal bo‘la olmaydigan ozgina ilmiy ish qilish bilangina kifoyalanadilar. Yana ba‘zilari orzu va g‘oya yo‘lidan qaytmasdan, aziz jonlarini umrbod jabr-u jafo ostida qoldiradilar. Oradan yillar va oylar o‘tib, ko‘plab navqiron yosh tolibi ilmlardan bir necha sanoqligina atoqli olimlar yetishib chiqadi. XX asr sho‘ro tuzumidagi o‘zbek yosh tadqiqotchilarining qismati Navoiy davridagi yosh tolibi ilmlar qismatidan ham og‘ir bo‘lgan. Ularga yosh tadqiqotchi emas, balki oddiy mardikor, qishloq xo‘jalik ishlari uchun hamisha tayyor ishchi kuchi zahirasi sifatida qaralgan. Yosh olimlar har yili 110 kungacha turli qishloq xo‘jaligi ishlariga majburan safarbar qilingan. Shundan 2 oy – 60 kun paxta yig‘im-terimiga jalb etilgan. Qolgan 50 kun 20 dan ortiq (pichan o‘rish, uzum uzish, olma terish, lavlagi yulish, kartoshka to‘plash va h.k.) turdagi qishloq xo‘jaligi ishlarini bajarish uchun ular ko‘rpa-to‘shagi bilan dalalarga ko‘chirib yuborilgan. Bu kunlar va ishlar miqdori mubolag‘a emas, ular aniq hisob-kitob qilingan. Yosh tadqiqotchilarning ilm uchun mo‘ljallangan aziz umri dalalarda xazon bo‘lgan. Butun Ittifoqda qayta qurish va oshkoralik davri avjiga chiqqan pallada kamina yosh olimlar sovetining raisi sifatida jonga tekkan shu qishloq xo‘jaligi ishlarining dastidan dod deb, “Yosh olimning iztiroblari” sarlavhali maqola yozdim. Uni ko‘plashib muhokama qildik, 37 yosh olim imzosi bilan “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasiga olib borib berdik. Gazeta ayrim qisqartirish va tahrirlar bilan “Hashar majburiymi?” sarlavhasi ostida maqolani 1988-yil, 20-may kuni e‘lon qildi[1]. Maqola Akademiya va Kuybishev (hozirgi Mirzo Ulug‘bek) tumani rahbariyatida shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Shundan keyingina biz yosh olimlar qishloq xo‘jalik ishlaridan ozod bo‘ldik. Bizning ko‘rpa-to‘shak, raskladushka va boshqa jihozlarimiz Institut omboridan yo‘qotib yuborildi.

Xulosa qilib aytganda, ilmning yo‘li sermashaqqat ekanligi, olim odamning shakllanish jarayoni, xuddi Navoiy tasvirlaganidek, juda murakkab va iztirobli bo‘lishi hayot qonuniyati, ilm ahlining peshonasiga bitilgan qismatdir. Shu qismatni tan olib, matonat bilan izlangan olim kamolotga erishadi, maqolotning keyingi qismida tavsiflaganidek “sharaf gavharining koni” martabasiga ko‘tariladi. 1970-yillarda O‘zR

“ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI”

mauzusidagi 69-ilmiy xalqaro konferensiya materiallari

FA Til va adabiyot institutiga ishga kirganimizda, biz yosh olimlar 70 nafarga yaqin edik. Biz, yosh olimlarning taqdirimiz, ijod va umr yo‘llarimiz aynan Navoiy tasvirlaganidek kechdi. Kimlardir yo‘qchilik va ta‘minotsizlikdan, kimlardir 20 yillab boshpanasiz sarson-sargardonlikda yashash joniga tekkanidan, kimlardir ilmiy darajalar yo‘lidagi to‘siqlar zulmiga bardosh berolmaganidan, yana kimlardir to‘qlik va farovonlikdan ko‘ngil uzolmaganidan ilm dargohlari hamda poytaxtni tark etdi. Kimlardir ilm yo‘lida shahid ketdi. Bizning avlodimizdan 15 ga yaqin fan doktori, 30 dan ortiq fan nomzodi yetishib chiqdi. Boshqalar ilmiy darajaga erisha olmadilar. Ilm maydonida barmoq bilan sanarli faol olimlar qoldi. Navoiy xulosa qilganidek:

*“Evrulubon doirayi mohu sol,
Zohir o‘lub bir-iki sohib kamol”.*

Hozir esa, Yangi O‘zbekiston sharoitida ilm toliblariga a‘lo imkoniyatlar muhayyo. Bizning davrimizda aspiranturaga juda kam o‘rin ajratilar, magistratura va doktorantura tahsili umuman yo‘q edi. Mustaqillik davri yosh olimlari baxtiga, hozir oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari ko‘payib ketgan, magistratura va doktorantura o‘rinlari istagancha topiladi. Yosh olimlar ilmiy tadqiqot uchun istagan xorijiy mamlakatlariga borishlari yoki yuborilishlari mumkin. Oliy attestatsiya komissiyasi sobiq ittifoq poytaxti Moskvada emas, balki Vatanimiz poytaxti Toshkentda joylashgan. Himoya kengashlari har bir oliy o‘quv yurtida mavjud. Dissertatsiya yoqlagan yosh olimlar ishlari tasdig‘i va diplom uchun necha oylab, hattoki, yillab Moskva yo‘llariga ko‘z tikmaydilar, oy o‘tmay muddaoga erishadilar. Navoiy va mustabid tuzum davrida bunday shart-sharoitlar haqida orzu qilish yoki xayol surish ham mumkin emas edi. Milliy mustaqillik in‘om etgan bunday imkoniyatlarning qadriga yetishimiz lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alisher Navoyi. Xamsa. Hayrat ul-abror. Ilmiy tanqidiy matn. Tuzuvchi: Porso Shamsiev. “Fan”, T., 1970-yil.
2. Alisher Navoyi. Xamsa. Nashrga tayyorlovchi Porso Shamsiev. “Fan”, T., 1958-yil. 160-164-betlar.
3. Alisher Navoyi. Mukammal asarlar to‘plami. 7-tom. Hayrat ul-abror. “Fan”, T., 1991-yil. 212-216-betlar.
4. Alisher Navoyi. To‘la asarlar to‘plami. 6-jild. Hayrat ul-abror. “Fan”, T., 2011-yil, 185-189-betlar.
5. Hashar majburiymi? N.Jumaev va boshqalar. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi, 1988-yil, 20-may soni.